



*2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"*

## UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIKLARIDA SERVIS XIZMATLARINING O‘RNI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

**Yuldosheva Sh.A.**

QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası assistenti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmatlarining o‘rni va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari to‘g‘risida fikrlar keltirilgan. Ma‘lumotlar respublika va Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Uy-joy, kommunal xo‘jaligi, servis, moliyaviy resurs, xizmatlar, samaradorlik, aholi, uy xo‘jaliklari

### KIRISH

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonining rivojlanishi, raqobatning keskinlashuvi, xizmatlar ko‘rsatish darajasining samaradorligini oshirish hamda sifat ko‘rsatkichlarining ustuvorligini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi aholi turmush darajasi va sifatini ta‘minlashning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, xizmatlar samaradorligini oshirish sohaning asosiy maqsadlaridan biridir. Mazkur sohalar rivojlanishiga bo‘lgan ob‘ektiv zarurat aholi turmush darajasi sifatini yuksaltirish barobarida ish bilan bandlik darajasining ortishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. «Rivojlangan mamlakatlarning xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foiz va ish bilan bandlar salmog‘i 70 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining xizmat ko‘rsatish sohasida bandlik Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida 75, AQShda 80, Yaponiyada 82 foizdan ortadi»<sup>1</sup>. Aynan shu nuqtai nazardan jahon miqyosida servis xizmatlari sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmi va sifatini oshirgan holda, servis xizmatlarining zamonaviy turlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

### MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Uy-joy kommunal servis xizmati sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, Y.A.Shumpeter, M.Yu.Porter, B.S.Santo, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.P.Chelenkov, V.V.Kulibanova, V.K.Romanovich,

<sup>1</sup> <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova, F.Kotler, R.Nureyev, V.Shiray va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o'rganishga respublikamiz olimlaridan Q.J.Mirzayev, M.M.Muhammedov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, N.To'xliyev, I.Ivatov, K.B.Urazov, E.S.Fayziyev, R.X.Ergashev, B.Sh.Safarov, S.B.Boboqulov, Sh.O.Quvondiqov, I.Ochilov, Sh.X.Muxitdinov, J.Qurbonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari uy-joy kommunal xo'jaliklarida xizmat ko'rsatishning turli masalalariga bag'ishlangan.

Iqtisodchi olim R.Nureyev fikriga ko'ra, «Xizmat – qandaydir moddiy obyekt sifatida mulkka egalik huquqini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lmagan naf keltiruvchi tushuncha yoki munosabat (harakat) dir»<sup>2</sup>.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim, professor M.Q.Pardayev va I.Ochilovlarning fikricha, «Xizmatlar deganda, ... insonning, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyat tushuniladi»<sup>3</sup>.

## TAHLILLAR

Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatishning sifati va uni raqamli iqtisodiyoti sharoitida oshirishning obyektiv zarurdir. Demak, uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo shahar va boshqa joylarda ko'rsatilayotgan kommunal servis xizmat darajasini baholash uslubini tahlil qilamiz. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, tashqi va ichki rivojlanish omillarini hisobga olgan holda, shahar va boshqa joylarda ham uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sifati darajasini oshirish uchun eng avvalo uning hozirgi holatini baholash va uning sifati oshirish uslubini ishlab chiqishimiz zarur.

Buning uchun uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Bu yerda davlat mablag'larini ajratish ham muhim manba hisoblanadi. Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini baholash nuqtai nazaridan tahlil qilish eng dolzarb muammoli yo'nalish yagona metodlarni shakllantirish, **birinchidan**, uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmatni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'larni tejash, **ikkinchidan** esa xizmat ko'rsatish sifati oshirish samaradorligini baholash ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi.

Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarish oldida turgan muammolardan biri-bu baholashning raqamlashtirilgan va iqtisodiy asoslangan usullarini yaratishdir.

Boshqaruv samaradorligi resurslarning barcha turlari: moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan to'g'ri foydalanishni bildiradi. Shuning uchun uy-joy kommunal xo'jaliklarida boshqaruvning samaradorligini baholashda kompleks yondashish zarur.

Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi rolini samarali usullar yordamida chuqur tahlil qilish va baholash soha tarmoqlarida aholi bandligini oshirish bo'yicha hamda bu muhim ishda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashga va shu asosda ularni ro'yobga chiqarishga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. **Bizningcha**, uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi eng muhim asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagilarni kiritish

<sup>2</sup>Р.Нуреев. Экономика развития: модели становления рыночной экономики.-М:2002..

<sup>3</sup> M.Pardayev, I.Ochilov.Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Monografiya, T.: «Iqtisod-moliya», 2011, 126-b.

mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi eng muhim asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.**

O‘zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar dinamikasi<sup>4</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar										2021 yilning 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi, (+,- )	
		2017		2018		2019		2020		2021			
		Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo‘ yicha	Qashqadaryo viloyati
1	Xizmat ko‘rsatish sohasida band aholi sonining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi, foizda	41,1	49,8	52,1	53,3	53,2	54,5	53,8	53,2	59,3	58,9	18,2	9,1
2	YaIM xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi, foizda	30,3	45,3	46,9	50,3	48,7	51,8	49,5	50,1	53,9	52,5	23,6	7,2
3	Aholi iste‘mol xarajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi, foizda	10,3	12,4	16,5	15,1	27,8	15,9	20,4	10,3	22,3	14,8	12,0	2,4
4	Ekspart tovarlari tarkibida xizmatlarning ulushi, foizda	13,7	3,5	10,2	4,1	24,5	4,2	26,3	2,1	28,0	3,9	14,4	0,4
5	Xizmat ko‘rsatish sohasiga sarflangan investitsiyalarning yalpi investitsiyalardagi ulushi, foizda	63,9	45,2	64,6	55,3	53,3	49,3	55,4	44,3	57,4	51,8	-6,5	6,6
6	Xizmat ko‘rsatish sohasini yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur‘ati, foizda	110,2	101,2	116,1	108,2	114,0	105,8	114,5	100,8	116,3	109,4	6,1	8,2
7	Xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan bir xodimga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi	6	3	4	3	4	3	4	3	7	4	1	1

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasini yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar kesimida o'tkazilgan tahlillar natijalari 2017-2021 yillarda O'zbekistonda bandlik darajasi 41,1 foizdan 59,3 foizga, ya'ni shu davr mobaynida 18,2 martaga oshganligini va iqtisodiyotda band bo'lgan aholi tarkibida uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sohasida band aholining hissasi sezilarli ravishda oshib borganligini ko'rsatdi. Qashqadaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich esa 9,1 martaga oshgan. Agar 2017 yilda xizmat ko'rsatish sohasida band aholining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi 49,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib u 58,9 foizni tashkil etdi (2.1- jadval). Lekin bu ko'rsatkich iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar darajasidan hali ancha past. AQSh va Yevropa mamlakatlarida aholi bandligida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 70 foizni tashkil etadi<sup>5</sup>. Demak, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashdagi rolini oshirish borasida keng imkoniyatlar mavjud.

Tadqiqotlar uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, 2017 yilda xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan bir xodimga mamlakat aholisining 6 va 3 nafari to'g'ri kelgan. 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 7 va 4 nafarni tashkil etdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xizmat ko'rsatish sohasidagi bir xodimga to'g'ri keladigan mamlakat aholisining soni qanchalik kam bo'lsa, bu soha shunchalik rivojlangan, degan xulosani chiqarish mumkin. Bunda eng avvalo, ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati oshadi va aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligining ortib borishi va ular yaratadigan xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, tahlil natijalari O'zbekistonda va Qashqadaryoda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda muhim natijalarga erishilganligini, soha taraqqiyotida barqaror ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda sohani, uning alohida tarmoqlarini, ayniqsa shahar joylarida ushbu sohani yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi.

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida xizmatlarning 2017-2021 yillardagi o'zgarishi<sup>6</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2021 yilda 2017 yilga nisbatan o'zgarishi, %
		2017	2018	2019	2020	2021	
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>							
1	Doimiy aholi soni (ming kishi)	32656,7	33255,5	33905,8	34695,5	35603,4	109,0
2	Xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)	118811,0	150889,8	193697,8	218853,5	219978,5	185,1

<sup>5</sup>Пастухов А.Л. Ускорение развития сферы услуг как необходимое условие модернизации экономики. //Экономика и экономические науки. 2012 г., №20. –С.80-85.

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

3	Bir aholi jon boshiga xizmatlarning to'g'ri kelishi (ming so'm)	3668,3	4578,5	5768,2	6421,1	6687,2	182,3
4	Kommunal xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)	3638,2	4537,3	5614,2	6102,3	7183,4	197,4
<b>Qashqadaryo viloyati</b>							
1	Doimiy aholi soni (ming kishi)	3148,1	3213,3	3280,1	3315,1	3408,3	108,2
2	Xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)	5859,7	6975,9	8736,9	11236	13262,4	226,3
3	Bir aholi jon boshiga xizmatlarning to'g'ri kelishi (ming so'm)	2884,5	2601,7	3946,8	5900,1	6387,3	221,4
4	Kommunal xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)	81,3	209,6	204,7	206,7	220,8	271,6

Yuqoridagi jadval ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunal xizmatlar hajmi mutonosiban 2021 yilda 219978,5 va 13262,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. Bu esa 2017 yilga nisbatan mutonosiban 101167,5 va 7402,7 mlrd.so'mga ko'p, ya'ni shu davr mobaynida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,9 va 2,3 barobarga oshgan. Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar hajmi 2021 yilda 13262,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. Bu esa 2017 yilga nisbatan 7402,7 mlrd.so'mga ko'p, ya'ni shu davr mobaynida ushbu ko'rsatkich 2,2 barobarga oshganiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2-jadval).

Yuqoridagi tahlillarni chuqur o'rganish maqsadida aholining uy-joyga ko'rsatilayotgan uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmatlari uchun sotsiologik so'rovnomalalar va xizmatlarga o'z vaqtida to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning turlari va sabablari ko'rib chiqildi. Xususan, xizmatlar uchun haq to'lamaslik oqibatlarining xususiyatlari ko'rib chiqilib, uning asosida aholiga pul to'lamaslik sabablari o'rganilib, iste'molchilar xulq-atvori omillarining uy-joy xizmatlari kommunal to'lovlarini to'lashga ta'siri aniqlangan.

**Bizning fikrimizcha,** uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun, asosiy e'tibor uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqaruvining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu ham ilmiy, ham amaliy tomondan muhim tadqiqot hisoblanadi. Chunki mulkchilikning ko'p turli shakllari sharoitda nafaqat ishlab chiqarish jarayonini zamonaviy boshqarishni, balki mahsulot va xizmatlarning sotilishini ham hisobga olish zarur. Shuning uchun zamonaviy boshqarishning samaradorligini baholashda tashqi muhitni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki boshqaruv tizimining oxirgi natijalari ishlab chiqarishdan tashqaridagi jarayonda o'z aksini topadi. Agar yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan kelib chiqilsa, unda zamonaviy boshqaruvning samaradorligi quyidagi yo'nalishlarda baholanishi mumkin:

- baholashni iqtisodiy jihatdan asoslash va maqsadni belgilash;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarning baholarini tanlash mezonlarini belgilash;
- servis xizmat ko'rsatishning maqsadini mahsulot turlari bo'yicha ehtiyoj bilan solishtirma

baholash;

oxirgi natijalar va servis xizmat ko'rsatish vazifalarini solishtirma baholash;

## XULOSA

Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi eng muhim asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagilar kiritilishi maqsadga muvofiq deb topildi: uy-joy kommunal sohasida band aholining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi; yalpi ichki mahsulot tarkibida uy-joy kommunal sohasining ulushi; aholi iste'mol xarajatlari tarkibida uy-joy kommunal sohasining ulushi; eksport tovarlari tarkibida xizmatlarning ulushi; uy-joy kommunal sohasiga sarflangan investitsiyalarning yalpi investitsiyalardagi ulushi; uy-joy kommunal sohasi yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati; uy-joy kommunal sohasida band bo'lgan bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni; uy-joy kommunal korxonalarida kadrlar qo'nimsizlik darajasi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis sohasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimi ishlab chiqildi va ularning ta'siri aniqlandi. Jumladan, uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis sohasining rivojlanishiga YaIM, aholining pul daromadlari, sohadagi band aholi, unga kiritilayotgan investitsiyalar, uning aylanma mablag'lari va moddiy boylik zaxiralari kabi omillar ta'siri aniqlandi.

Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish sifat va samaradorligini oshirish uchun, asosiy e'tibor uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmat ko'rsatish korxonalari zamonaviy boshqaruvining samaradorligini oshirishda raqamlashtirish uslubidan foydalanish imkoniyatlari yuqori samara beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni. 1990 yil 31 oktyabrda qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 6 avgustda qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi №PF-60 Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktyabrdagi 841-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2900-sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.
7. Muxammedov M. va boshqalar "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari"- S.: Zarafshon 2017. – B. 299.
8. Yuldosheva Sh.A. Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmati samaradorligini oshirishning ahamiyati. "Innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, Samarqand-Tambov, 2020- yil, 21-22-fevral, 19-22 betlar.

9. Yuldosheva Sh.A. Pandemiya sharoitida uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis xizmati samaradorligini oshirishning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar Kengashi tashabbusi bilan "Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" nomli respublika an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, 2020-yil, 30-oktabr, 286-288-betlar.
10. Юлдошева Ш.А., Файзиева Ш.Ш. Влияние построения дешевого жилья на обновленные модельные проекты в сельских местах на благополучие населения "Экономика и социум" журналі, №12 (79) 2020 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
11. Yuldosheva SH.A. "The role of services in housing and utilities and their opportunities to increase efficiency" ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492.
12. Юлдошева Ш.А. Жилищно-коммунальная система и ее роль в повышении жизненных стандартов. "Xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish muammolari" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. (V qism). Samarqand, 2021- yil, 19-20-fevral, 71-74 betlar.
13. Yuldosheva SH.A., Fayziyeva SH.SH. "Impact of affordable housing construction and housing and communal services on the welfare of the population by typical projects" Journal of Contemporary Issues in Business and Government. Vol.27,№2, 2021 <https://cibg.org.au/>. 123. Yuldosheva Sh.A. O'zbekistonning uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish tamoyillari. «Innovatsion texnologiyalar» jurnali. Maxsus son 2021 yil 103-109-betlar.
14. Yuldosheva SH.A. The importance of Housing Policy in Uzbekistan in the Connection of an Innovative Economy Academic Journal of Digital Economics and Stability. 2021 y, august. 319-326.
15. Yuldosheva Sh.A. Uy-joy kommunal xo'jaliklari tomonidan servis xizmatlarini shakllantirish mexanizmi va xorij tajribalari. OAK tasarrufidagi "Biznes-ekspert" jurnali, 2022-yil, №2 son, 111-117-betlar.
16. Yuldosheva Sh.A. State and Development of Housing Policy in Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Volume 22, oct-2022 <https://economics.academicjournal.io>. 50-56-pp.
17. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. [Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16](#), April 2022, Pages 79-83
18. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.
19. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* 7 (2021): 96-100.
20. Toxirovna, Samieva Gulnoza. "Farmers-Food Sustainability Services." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* (2021): 899-904.
21. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan." *Journal of Contemporary Issues in Business and Government* 2021 (2021).



22. Самиева Г.Т. ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Иновацион технологиялар. – 2020. – №. 3 (39).
23. Khakimov, Rashid, and Samiyeva G. Toxirovna. "Agrarian Sector of the Republic of Uzbekistan in a Way of Development and Features of Enterprise Activity." *International Journal on Orange Technologies*, vol. 2, no. 10, 11 Oct. 2020, pp. 53-57, doi:[10.31149/ijot.v2i2.685](https://doi.org/10.31149/ijot.v2i2.685).
24. Tukhtabaev, J. S., Samiyeva, G. T., Tashnazarov, S. A., Taylakova, D. B., & Chuyanov, K. U. (2021). Econometrical Assessment of Factors Affecting Diversification of Production in Farms Ensuring Food Security. *International Journal of Modern Agriculture*, 10(1), 981-990.
25. Toxirovna S. G. Dehqan Farm-Services To Sustain Food Supply //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – Т. 6. – С. 1-5.
26. Samiyeva G. Dehqon xo'jaliklarini tadqiq etishning nazariy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 171-176.
27. Samiyeva G. T. Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2022. – Т. 4. – №. 3. – С. 122-126.
28. Samiyeva, G. T. (2022). THE MAIN SOCIO-ECONOMIC TASK - EMPLOYMENT OF THE POPULATION AND WAYS TO SOLVE UNEMPLOYMENT. &quot;ONLINE - CONFERENCES&quot; PLATFORM, 84–91. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/849>
29. Bahodirovich, Aminov F. "The Role of Investments in the Innovative Development of the Economy." *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, vol. 4, no. 3, 2022, pp. 112-117.
30. АМИНОВ, Ф. Б. (2022). РОЛЬ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ. *Economics*, (1 (51)), 26-29.
31. Bahadirovich, A. F. (2022). Conditions for Forming the Digital Economy in the Republic of Uzbekistan. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2, 88-92.
32. Bahadirovich, A. F. (2021). The Main Directions of State Regulation of Entrepreneurial Activity. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 12, 22-27.
33. АМИНОВ Ф.Б. (2023). ЖИЗНЕННЫЙ УРОВЕНЬ НАСЕЛЕНИЯ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА. *Экономика и социум*, (2 (105)), 434-443.
34. АМИНОВ, Ф. Б. (2022). РОЛЬ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ. *Economics*, (1 (51)), 26-29.
35. АМИНОВ Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 232-237.
36. АМИНОВ, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
37. A.J. Musagaliev, & B.T. Shodiev. (2022). Methodological Issues of Location and Effective Use of Wells in Pastures in Uzbekistan . *Partners Universal International Research Journal*, 1(1), 1–5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6387977>

38. Musagaliev, A. J., & Shodiev, B. T. (2023). Issues of Efficient Usage of Pastures in the Development of the Cattle Farming Network. *UTTAR PRADESH JOURNAL OF ZOOLOGY*, 44(1), 81-87. <https://doi.org/10.56557/upjz/2023/v44i13394>
39. Ochilov, A. O., Ostonov, E., Shodiev, B. T., Ergashev, T. S., & Khakkulov, F. F. (2022). Modern Approaches To Management Of Training Of Highly Qualified Personnel In The New Uzbekistan Higher Education System. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2432-2442.
40. Шодиев Б.Т. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩ // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritetnye-napravleniya-effektivnogo-ispolzovaniya-pastbisch> (дата обращения: 28.02.2023).
41. Аликулов К., Шодиев Б.Т. ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, ПРАВОВЫЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАРАКУЛЕВОДСТВА КЛАСТЕРОВ // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-ekonomicheskie-pravovye-sotsialnye-i-ekologicheskie-prioritety-deyatelnosti-karakulevodstva-klastеров> (дата обращения: 28.02.2023).
42. Шодиев Б. Т. ДОСТИЖЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ЭКОСИСТЕМЫ И СОХРАНЕНИЯ БИОРАЗНООБРАЗИЯ В ПАСТБИЩНЫХ РЕГИОНАХ. – 2016.
43. Шодиев, Б. Т. Основные принципы эффективного управления каракулеводством и пастбищепользованием / Б. Т. Шодиев // Экономика и предпринимательство. – 2019. – № 7(108). – С. 1239-1243. – EDN ZQVKMA.
44. Ochilov, A. O., Ostonov, E., Shodiev, B. T., Ergashev, T. S., & Khakkulov, F. F. (2022). Modern Approaches To Management Of Training Of Highly Qualified Personnel In The New Uzbekistan Higher Education System. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2432-2442.
45. Musagaliev, A. J., & Shodiev, B. T. (2023). Issues of Efficient Usage of Pastures in the Development of the Cattle Farming Network. *UTTAR PRADESH JOURNAL OF ZOOLOGY*, 81-87.